Iqtisodiyotni raqamlashtirish mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish omili sifatida.....	884
<b>Amanov Otabek Amankulovich</b>	
Tashqi savdo – statistik o'rganishning obyekti sifatida .....	888
<b>Ergashev Mirjon Yorqin o'g'li, tayanch doktorant</b>	
Nodavlat notijoart tashkilotlarida maqsadli tushumlarga doir ishchi schotlarni takomillashtirish.....	893
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich, PhD</b>	
Kichik biznes subyektlarida marketing strategiyasini qo'llash va uni takomillashtirish .....	897
<b>Saidaxmedova Nodira Ilxamovna, DsC</b>	
Библиометрический анализ области знаний налогового администрирования.....	902
<b>Bokhodir Isroilov, Doctor of Economics, Boburshoh Ibragimov, PhD</b>	
Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni tartibini takomillashtirish tahlili.....	909
<b>Raximova Shaxlo Rajapboyevna, mustaqil tadqiqotchi</b>	
Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati.....	915
<b>Xo'jaqulova Nigora Rustamovna, PhD</b>	
Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ta'sirini boshqarish .....	922
<b>Maxmudov Anvarjon Maxmudovich, mustaqil izlanuvchi</b>	
O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faoliyatining ekonometrik tahlili .....	930
<b>Achilov Uyg'unjon Ulug'bekovich, dotsent</b>	
Семья и ее роль в воспитании молодежи .....	935
<b>Зайналов Жахонир Расулович, профессор, Бердикулов Журабек, ассистент</b>	
Don mahsulotlari korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining boshqaruv hisobi, auditi va tahlil qilishga oid tadqiqotlarga doir mulohazalar.....	938
<b>Nosirov Ilhom Abbosovich, i.f.d., Abdilalimov Akmaljon Obidjanovich, mustaqil izlanuvchi</b>	
Повышение эффективности маркетинговой деятельности издательско-полиграфических компаний..	943
<b>Холмирзаева Феруза Абдуллаевна</b>	
Совершенствование учета качества в предприятиях по хранению и переработке зерна.....	949
<b>Холбеков Расул Олимович, доктор экономических наук, профессор</b>	
Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zamонавиј yo'nalishlari .....	956
<b>Axmedova Nafisa Amriddin qizi</b>	



Iste'molchilarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini takomillashtirish.....	962
<b>Ruziyeva Shaxlo Raupovna</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilishning nazariy asoslari .....	968
<b>Maxmudova Sharifa Elmurodovna</b> , tayanch doktorant	
Tijorat banklarining chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar .....	972
<b>Xudayarova Xurshida Abdunazarovna</b> , PhD	
Xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda uning rolini oshirish .....	978
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida).....	983
<b>Nabiyeva Feroza Odilovna</b> , tayanch doktorant, <b>Parpiyeva Ra'no Abdurasulova</b>	
Пути организации инновационных процессов в Узбекистане.....	988
<b>Насиров Дилшод Фарходович</b>	
Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе.....	992
<b>Кодиров Бобур Абдулбори угули</b> , магистр	
Tijorat banklari depozit bazasini optimallashtirish masalalari .....	1000
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
Tijorat banklari operatsion xarakatlarini optimallashtirishning ayrim jihatlari .....	1005
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Bank kapitali barqarorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati.....	1010
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich</b>	
O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotining institutsiunal tahlili .....	1014
<b>Hakimjon Hakimov</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1019
<b>Umurzoqova Adiba Ochilovna</b>	
Korxonalarning investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish .....	1024
<b>Ilyasova Barno Axmadowna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Xitoy sug'urta bozorida onlayn sug'urta xizmatlar tahlili .....	1028
<b>Qarshihev Daniyar Eshpulatovich</b> , iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)	
Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari .....	1033
<b>Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi</b> , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi faoliyatini samaradorligini matematik simulyatsion modellashtirish.....	1041
<b>Artikov Ne'matulla Abdusalamovich</b>	
O'zbekistonda akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash: 2022-yilgi AFI tadqiqotidan olingan tushunchalar va ilmiy istiqbollar .....	1046
<b>Yuldashev Feruz Isroil o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalari .....	1052
<b>Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich</b> , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori	
Tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish yo'llari .....	1058
<b>Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna</b> , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi va uning amal qilish mexanizmi ...	1064
<b>Muxtorova Umida Karimovna</b> , katta o'qituvchi	
Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы .....	1070
<b>Нуриллаев Рахмат Ярашевич</b> , к.с.х.н., доцент	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции .....	1075
<b>Бабаева Гузаль Яшиновна</b> , доцент кафедры	
Oilaviy biznes bo'yicha jahon amaliyoti tahlili .....	1081
<b>Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining tutgan o'rni.....	1086
<b>Jo'rayev Dilshod Maxmudjonovich</b>	
To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi .....	1091
<b>Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich</b> , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi iqtisodiy savdoning ahamiyati.....	1095
<b>Ibodullayev Abror Axrorovich</b> , dotsent, <b>Gulov Ma'ruf G'ayrat o'g'li</b> , <b>Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li</b> , talabalar	
The Impact of Corporate Monopolies on Market Competition and Economic Health.....	1100
<b>Nimatullayev Khondamir Tursunboy ugli</b> , <b>Avazov Ilhom Ravshanovich</b>	



Проблемы и перспективы зеленой экономики в Республике Узбекистан.....	1104
<b>Тураева Адиба Икрамовна</b> , старший преподаватель кафедры	
Quantifying the Return on Investment for Businesses in Adopting Green Construction Practices .....	1109
<b>Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova</b> , DSc	
Ishlab chiqarish tafovutining markaziy bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri.....	1117
<b>Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich</b> , PhD	
Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish.....	1122
<b>Kalandarova Nargiza Narimanovna</b> , PhD	
Aksiyadorlik jamiyatlarining fond birjalarida listingdan o'tish tartibi va mamlakatimiz amaliyoti.....	1128
<b>Narimonov Sayfullaxon Sunnatillo o'g'li</b> , тайчанъ докторант	
Hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlari .....	1135
<b>Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi</b> , тайчанъ докторант	
Kichik biznes uchun muqobil moliyalashtirish manbalari va vositalari: xorijiy tajriba.....	1142
<b>Xolikov Sarvar Xayitbayevich</b>	
Mintaqaviy oziq-ovqat bozorining amal qilish mexanizmini takomillashtirish .....	1146
<b>Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich</b>	
Banklar faoliyatini transformatsiya qilishning biznes modellari.....	1151
<b>Erdonayev Aliqul Xalimovich</b>	

# MUNDARIJA CODERJAHNIYE CONTENTS



# BANKLAR FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING BIZNES MODELLARI



**Erdonayev Alikul Xalimovich**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

**Annotatsiya:** Maqolada banklar faoliyatini transformatsiya qilish jarayonida zamonaviy biznes modellarining tutgan o'rni tahlil qilingan. Xususan, mijozga yo'naltirilgan yondashuvning ustuvorligi, raqamli texnologiyalar ta'siri va Sankt-Gallen modeli asosida bank tizimini yangilashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Transformatsiyaning muvaffaqiyati texnologik sarmoyalar, tashqi muhit bilan integratsiya va moslashuvchan boshqaruv tizimlariga bog'liqligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** bank transformatsiyasi, biznes modeli, raqamli texnologiyalar, mijozga yo'naltirilgan yondashuv, Sankt-Gallen modeli.

**Abstract:** This article examines the role of modern business models in the transformation of banking operations. It focuses on the importance of customer-centric approaches, the impact of digital technologies, and the application of the St. Gallen model in both theoretical and practical contexts. The study emphasizes that the success of transformation depends on technological investments, integration with the external environment, and adaptive management systems.

**Key words:** banking transformation, business model, digital technologies, customer-centric approach, St. Gallen model.

**Аннотация:** В статье рассматривается роль современных бизнес-моделей в трансформации деятельности банков. Особое внимание уделено клиенториентированному подходу, влиянию цифровых технологий и применению модели Санкт-Галлена в теоретическом и практическом аспектах. Обосновано, что успех трансформации зависит от технологических инвестиций, интеграции с внешней средой и гибкости управления.

**Ключевые слова:** трансформация банков, бизнес-модель, цифровые технологии, клиенториентированный подход, модель Санкт-Галлена.

## KIRISH

Global raqamli iqtisodiyotning jadallik bilan rivojlanishi bank tizimida tub o'zgarishlarni talab qilmoqda. Xususan, tijorat banklari an'anaviy operatsion yondashuvlardan voz kechib, moslashuvchan, mijozga yo'naltirilgan va texnologik asoslangan yangi biznes modellarni izlashga majbur bo'lmoqda. Mijozlar ehtiyojlarning murakkablashuvi, moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatning keskinlashuvi hamda davlatning moliya sektoridagi ishtirokini qisqartirish siyosati banklarni transformatsiya qilish zaruratini kuchaytirmoqda.

Ushbu sharoitda muvaffaqiyatli bank modeli nafaqat xizmat ko'rsatish sifati va operatsion samaradorlikni oshirishi, balki texnologik yutuqlarni chuqur integratsiyalash orqali strategik barqarorlikni ta'minlashi zarur. Sankt-Gallen modeli kabi zamonaviy yondashuvlar ochiq tizim tamoyiliga asoslanib, bank faoliyatini tashqi muhit bilan uziyi bog'liq holda shakllantirish imkonini beradi. Maqolada aynan shunday modellar tahlil qilinadi, ularning afzallikkleri, joriy etilish shartlari va iqtisodiy samaradorligi ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – banklar faoliyatining transformatsiyasi uchun samarali biznes modelini aniqlash, ularni O'zbekiston moliya tizimi sharoitida amaliy joriy etish imkoniyatlarini o'rganish va strategik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

So'nggi yillarda bank faoliyatini transformatsiya qilish, ayniqsa, raqamli texnologiyalar asosida biznes modellarni yangilash masalasi dunyo miqyosidagi ilmiy tadqiqotlarning diqqat markazida turibdi. Mijozga yo'naltirilgan yondashuvning banklar uchun ustuvor strategiyaga aylanishi X. Chesbrough, M. Tushman va K. Christensen singari olimlar tomonidan korporativ innovatsiyalar nazariyasi doirasida tahlil qilingan. Xususan, Christensenning "innovatsion uzilish" (disruptive innovation) nazariyasiga ko'ra, texnologik yutuqlar orqali eski biznes modellar o'z o'rnni yangi, samarador va moslashuvchan modellar bilan almashtiradi. Bu holat ayniqsa moliyaviy xizmatlar sektorida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Sankt-Gallen modeli kabi strategik transformatsiya modellarining bank tizimiga tatbiqi bo'yicha o'tkazilgan izlanishlar R. Winter va E. Fleisch tomonidan yoritilgan. Ular bu modelning tizimli va ochiq yondashuvi orqali bank faoliyatini tashqi muhit bilan uyg'unlashtirishda samarali vosita sifatida xizmat qilishini ko'rsatib bergan. Shu bilan birga, banklar transformatsiyasining raqamli yo'nalishi bo'yicha Frey va Osborne tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda avtomatlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining bank xizmatlari segmentatsiyasiga ta'siri tahlil qilingan.

Markus Schmid va Thomas Hess o'z izlanishlarda banklar uchun yangi biznes modellarni shakllantirishda raqamli platformalarning roliga e'tibor qaratgan. Ular platforma asosidagi modelning nafaqat texnologik innovatsiyalarni, balki mijoz bilan doimiy o'zaro aloqani ta'minlaydigan moslashuvchan tizim yaratishda muhim vosita ekanini asoslab bergan. Shuningdek, V. Gomber va P. Rau tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda fintech kompaniyalari bilan banklar o'rtasidagi hamkorlik transformatsion jarayonlarning muhim omili sifatida talqin qilingan.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida A. Kadirov va M. Komilovlar O'zbekiston bank tizimidagi islohotlar kontekstida biznes modellarning yangilanishi va raqamli transformatsiya jarayonlarini o'rgangan. Ularning fikricha, bank tizimi uchun o'ziga xos muvozanatlari model ishlab chiqish, mavjud infratuzilmalar bilan uyg'unlikda innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu tadqiqotlar banklar faoliyatini transformatsiya qilishda samarali biznes model tanlashda nazariy asos va amaliy yo'nalishlarni belgilab beradi. Ayniqsa, mijozga yo'naltirilgan, raqamli texnologiyalarga tayanadigan va ochiq tizimga asoslangan yondashuvlar bugungi global moliyaviy muhitda ustuvorlik kasb etmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar bank sektoridagi transformatsiya jarayonlarini aks ettiruvchi xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarni tahlil qilish hamda mavjud amaliyotlarni o'rganish orqali yig'ildi. Olingan ma'lumotlar kontent-tahlil usuli yordamida tahlil qilinib, zamonaviy biznes modellarni shakllantirishda qo'llanilayotgan yondashuvlar taqqoslab baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtida yetakchi banklar mijoz ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda biznes jarayonlari va boshqaruva tizimlarini qurishga intilmoqda. Shu sababli, transformatsiyani amalga oshirishda bank rahbariyati yoki tashqi maslahatchi o'z biznesining har tomonlama ko'rinishini, joriy va istalgan biznes arxitekturasini tavsiflash hamda keyingi o'zgartirishlar rejasini ishlab chiqish imkonini beradigan standart (referent) modelga tayanishi kerak.

Biznesni rivojlantirish banking oldingi strategik ustuvorliklarini amalga oshirish bilan bog'liq asosiy harakatlar, loyihibar va tashabbuslar moliyaviy barqarorlikni oshirishga olib kelishi mumkin. Bu – mijozlar tajribasi va depozitlar oqimining yaxshilanishi, yangilangan hamda yangi mahsulotlar assortimentining kengaytirilishi va raqamli texnologiyalardan foydalanish hisobiga mijozlar faolligini oshirish natijasida platforma va mijozlarga yo'naltirilgan bank modeliga asoslangan tarmoqlararo xizmatlar orqali amalga oshiriladi. Bu ustuvorlik, ma'lum darajada, boshqa harakatlarning natijalari va foydasiga e'tibor qaratadi. Biroq, faqat natijalarni kutish yetarli emas. Davlat dasturlari va omonatlarining kamayishi yoki yo'qligi bilan ifodalangan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning pasayishi xavfi yaqin kelajakda O'zbekistonda SOBlar uchun jiddiy tashvishga aylanib bormoqda. Darhaqiqat, hukumat olib borayotgan siyosatning hozirgi yo'nalishi davlatning iqtisodiyotdagini ishtirokini minimallashtirish bilan tavsiflanadi.



2020–2025-yillar oraliq’ida O’zbekiston bank tizimini isloh qilish strategiyasiga muvofiq, Biznesni rivojlantirish banki 2025-yilgacha xususiylashtirilishi rejalashtirilgan oltita davlat banki qatoriga kiradi. Moliyaviy kuch va etarli depozit bazasi Biznesni rivojlantirish banki uchun oflays rejimga o’tish jarayonida ajralmas qo’llab-quvvatlovchi omillar bo’ladi. Oldingi hisobotlarda PwC tomonidan qayd etilishicha, davlat qo’llab-quvvatlovi va davlat dasturlarisiz ssenariy yuzaga kelgan taqdirda, Biznesni rivojlantirish banki 340 milliard so’m miqdorida qo’shimcha mablag’ to’plashi, davlat omonatlari ham olib qo’yilsa, bankka qo’shimcha 1,62 trillion so’m zarurat tug’ilishi mumkin. Sodda qilib aytganda, bank davlat ishtirokisiz moliyaviy barqarorlikka e’tibor qaratmasdan turib, o’zining hozirgi bozordagi mavqeini saqlab qola olmaydi. Ushbu tashqi omillar natijasida bank mintaqaga uchun likvidlik va moliyaviy barqarorlikka erishishda diqqat bilan ko’rib chiqish va puxta rejalashtirishni talab qiladi. Bunday radikal va o’zgaruvchan landshaft sharoitida tashkilotlar nasldor bo’limgan, ijodiy yondashuv hamda moslashuvchanlikni namoyish etish orqali o’z salohiyatidan to’liq foydalanishlari zarus.

Hozirgi sharoitda banklar jiddiy muammolarga duch kelmoqda. Umuman olganda, iqtisodiyot tobora o’zaro bog’liq va raqamli bo’lib borayotgan sari bu muammolar yanada yaqqol namoyon bo’lmoqda. Yuqorida aytib o’tilganidek, yangi texnologiyalar bank sohasidagi o’zgarishlarning asosiy omillaridan biri bo’lib, operatsion model, funksiyalarni markazlashtirish, ish jarayonini avtomatlashtirish, ishchi kuchi tuzilmasi va banklar ega bo’lgan (yoki ega bo’lishi kerak bo’lgan) sheriklik darajasida sezilarli o’zgarishlarga olib kelmoqda. Biznesni rivojlantirish bankingning muvaffaqiyati, boshqa sohalardagi tashkilotlar singari, ko’p jihatdan zarur qobiliyat va ko’nikmalarni rivojlantirish uchun investitsiyalarga ustuvor ahamiyat berish, iloji boricha ko’proq hamkorlik qilish hamda innovatsiyalar madaniyatini kuchaytirish orqali texnologiyaning uzoq muddatli afzalliklarini qo’lga kiritish qobiliyatiga bog’liq bo’ladi.


Shunday qilib, Biznesni rivojlantirish banki o’sishiga ustuvor ahamiyat berishda texnologiya va operatsion samaradorlikning ahamiyatini e’tibordan chetda qoldirib bo’lmaydi. Sanoat tajribasi va tendensiyalari bizga yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni uzoq muddatli strategiyaning markaziga qo’ygan, uni barcha funksional sohalarga integratsiyalagan banklar maksimal qiymatga erishishda muvaffaqiyat qozonayotganini aniq ko’rsatmoqda.

Texnologiya banklar duch kelayotgan joriy muammolarni hal etishda eng kuchli vositalardan biri hisoblanadi. Yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish bozoriga qiziqish aniq bo’lsa-da, PwC so’rovida ishtirok etganlarning atigi 26 foizi bu strategik sohaga yo’naltirilgan joriy investitsiyalarni etarli, deb hisoblagan. Quyidagi jadval texnologiyalarni joriy etishga qanday omillar ta’sir ko’rsatishini aks ettiradi. Operatsion baholashlarimizdan kelib chiqib, ushbu omillarning ko’pchiligi bevosita Biznesni rivojlantirish banki bilan bog’liqligi aniqlanmoqda. Ularning faoliyatidagi nisbatan past texnologik imkoniyatlar dolzarb muammo bo’lib, zudlik bilan hal etilishi lozim bo’lgan zaif jihatdir. Boshqa ko’plab banklar singari, Biznesni rivojlantirish banki ham texnologiyaning kuchli ta’siridan foydalanishi shart.

Xo’sh, Biznesni rivojlantirish banki ushbu ustuvor yo’nalishdan to’g’ri sarmoya bilan qanday foya olishni kutishi mumkin? So’rovda ishtirok etganlarning 90 foizi o’z mablag’larini yo’naltirishda asosiy biznes mexanizmi sifatida mayjud xarajatlarni kamaytirish va samarasizlikni bartaraf etish uchun yangi texnologiyalar imkoniyatlarini yuqori baholagan. Biznesni rivojlantirish bankingning markazlashtirilgan filial modeli texnologiyalar va ularni integratsiyalash orqali tubdan o’zgarishi mumkin.

Bundan tashqari, yangi texnologiyalar banklarga mijozlarga xizmat ko’rsatishni takomillashtirish, tijorat takliflarini rivojlantirish, ish faoliyatini kengaytirish, hamkorlik imkoniyatlarini oshirish va yangi sheriklik yo’llarini yaratish imkonini beradi. Mijozlar bilan va ichki funksiyalar doirasida samarali o’zaro aloqani ta’minlash uchun to’g’ri texnologiyalar va vositalarni joriy etish Biznesni rivojlantirish banki uchun yuqori samaradorlikni ta’minkaydi. BPM, hujjatlarni boshqarish vositalari va CRM tizimlari – bu hisobotda taklif etilgan loyihalarda keltirilgan ba’zi misollardir. Ushbu vositalar hisobotning keyingi qismida batafsil ko’rib chiqiladi. Xususan, Biznesni rivojlantirish banki samaradorlikni oshirish va zamonaviylashtirish texnologiyalarini joriy etish orqali o’z faoliyatini sezilarli darajada takomillashtirishi mumkin.

Shunday qilib, mazkur guruhlarning faoliyati, qadriyatları va normalari bank faoliyatiga ta’sir ko’rsatuvchi muhim omillar sanaladi. Xususan, banklarni tartibga solish tartiblarining o’zgarishi bank erkinligini cheklashi mumkin. Shuningdek, raqobatchi banklarning strategiyasi yoki tegishli mijozlar guruhining qadriyatlaridagi o’zgarishlar bank faoliyatini transformatsiya qilishga bevosita ta’sir o’tkazadi (1-rasm).



1-rasm. Sankt-Gallen boshqaruv modeli.

Ko'pchilik iqtisodchi olimlarning fikricha, raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot va ma'lumotlar ko'laming kengligi sababli tijorat banklarida optimal biznes modeli – mijozga yo'naltirilgan model hisoblanadi. Standart model sifatida tanlangan Sankt-Gallen modeli bankni tashqi muhit ta'sirida aniq o'zgartirish imkonini beradi, chunki tanlangan yondashuv bank faoliyatini tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirsiz ishlay olmaydigan ochiq tizim sifatida ko'rib chiqadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Banklar faoliyatini transformatsiya qilish zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda muqarrar jarayon bo'lib, raqamli texnologiyalar, mijozlar ehtiyojlarining o'zgarishi va raqobat muhiti kuchayishi ushbu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi omillaridir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, transformatsiyaning muvaffaqiyati bankning strategik yo'nalishlari, tanlangan biznes modeli va texnologik imkoniyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, mijozga yo'naltirilgan modelni asosiy tamoyil sifatida qabul qilish bankning uzoq muddatli barqarorligi va innovatsion rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'yndaydi.

Sankt-Gallen modeli kabi tizimli yondashuvlar bank faoliyatining barcha komponentlarini yagona ochiq tizim sifatida ko'rib chiqib, tashqi muhit bilan integratsiyalashuv darajasini oshiradi. Transformatsiya jarayonida texnologiyalarga yo'naltirilgan sarmoyalalar hajmi, ichki operatsion samaradorlikni oshirish va mijozlar bilan aloqani yaxshilash borasidagi tashabbuslarning or'ni beqiyosdir. Banklarning raqamli vositalardan oqilona foydalaniши, yangi xizmatlar yaratish hamda jarayonlarni avtomatlashtirish orqali biznes modelini qayta ko'rib chiqishi natijasida ularning raqobatbardoshligi ortib boradi.

Shuningdek, davlat ishtirokining kamayishi sharoitida banklarning mustaqil moliyaviy barqarorlikka erishish salohiyati ularning transformatsion strategiyalariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu asosda aytish mumkinki, banklar faqat texnologik yangilanish emas, balki institut sifatida strategik qayta qurilish orqali bozor talablariga moslasha olgan taqdirdagina barqaror va samarali faoliyat yurita oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Christensen C.M. The Innovator's Dilemma. – Boston: Harvard Business Review Press, 1997. – 286 p.
2. Winter R., Fleisch E. Business Engineering – Auf dem Weg zum Unternehmen des Informationszeitalters. – Springer, 2001. – 370 S.
3. Frey C.B., Osborne M.A. The Future of Employment: How Susceptible are Jobs to Computerisation? – Oxford Martin School, University of Oxford, 2013.
4. Schmid M., Hess T. Business model options for banks in the digital age. – Journal of Banking and Finance, 2021.
5. Gomber P., Rau P. Banking goes Digital: Transformation of Financial Services. – Springer Nature, 2020.
6. Chesbrough H. Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. – Harvard Business School Press, 2003.
7. Kadirov A., Komilov M. O'zbekiston bank tizimining transformatsiyasi va innovatsion rivojlanish strategiyalari. – "Iqtisodiyot va ta'lif" jurnali, 2022.
8. Tushman M., O'Reilly C. Winning Through Innovation. – Harvard Business School Press, 1997.
9. Gomber P., Kauffman R. Digital Banking and Fintech: Strategic Options for the Financial Sector. – Journal of Financial Transformation, 2020.
10. Hess T., Matt C. Options for Business Model Innovation in Banking. – International Journal of Innovation Management, 2019.
11. Thomas Puschmann. Fintech. – Business & Information Systems Engineering. – Berlin: Springer, 2017. – 59(1). – pp. 69–76.
12. Douglas W. Arner, Janos Barberis, Ross P. Buckley. The Evolution of Fintech: A New Post-Crisis Paradigm? – Georgetown Journal of International Law. – Washington, 2016. – Vol. 47. – pp. 1271–1319.
13. Markos Zachariadis, Pinar Ozcan. The API Economy and Digital Transformation in Financial Services. – Journal of Innovation Management. – London: Oxford University Press, 2017. – Vol. 12. – pp. 3–19.
14. Ignacio Mas, Dan Radcliffe. Mobile Payments Go Viral: M-PESA in Kenya. – Bill & Melinda Gates Foundation, 2010. – 31 p.
15. Patrick Schueffel. Taming the Beast: A Scientific Definition of Fintech. – Journal of Innovation Management. – Luxembourg: HEG-FR, 2016. – Vol. 4(4). – pp. 32–54.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

